

**INDIGOFERA TINCTORIAL O'SIMLIGINING TIBBIYOTDAGI
AXAMIYATI.**

*Komilova Sarobibi Fozilbek qizi
Qadamboeva Shoxida Baxrombek qizi
Quvandiyoqova Darmonjon
Yoqubov G'ayrat Quvandiyoqovich
Urganch davlat universiteti talabalari
Urganch davlat universiteti, qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dotsent*

Indigofera o'simligining vatani Hindiston, mo'tadil iqlim sharoitiga ega Misr, Yaponiya, Yevropaning janubiy mintaqalari, Rossiya va AQSH hududlarida ham yaxshi o'sadi. Uzoq vaqtlardan buyon ushbu mo'jizakor o'simlikdan bir necha yo'nalishlarda keng foydalaniladi. U qishloq xo'jaligida yerlarning unumdorligini oshirishga yordam bersa, poliz ekinlari, mevali daraxtzorlar, choy va qahva plantatsiyalari hamda tokzorlar uchun azot manbai hisoblanadi. Tibet va Hind-Xitoy xalq tabobati, farmatsevtika sanoatida antibakterial va zamburug'larga qarshi vosita sifatida alohida qadrlanadi. O'simlik nomini ko'plab dori vositalari tarkibida uchratish mumkin. Osiyo va Yevropa to'qimachilik sanoatida esa indigoferaga jun, ipak, paxta ip va matolarni bo'yash uchun olinadigan qimmatbaho indigo tabiiy bo'yog'i (ko'k rangdan to to'q qizil ranggacha) manbai sifatida foydalanilgan. Indigofera — dukkaklilar oilasiga mansub o'simliklarning yirik turkumi, dunyoning tropik va subtropik mintaqalarida o'sadi. Sharqiy Osiyoning mo'tadil kengliklarida bir nechta turlar o'sadi. Indigofera o'simligini 700 ga yaqin turi mavjud bo'lib, buta, o't o'simliklardan iborat. Shuningdek balandligi 5-6 m gacha bo'lgan mayda daraxtlar ham bor, ularning aksariyati quruq mavsumda barglarini to'kadi. Barglari toq patsimon pinnate bo'lib, oxirida bitta bargi imparipinnate. Ular Amerikaning janubida, Hindistonda joylashgan, indigoferaning ba'zi turlari Qrim, Zakavkaz va Markaziy Osiyoda o'sadi. Ko'pgina Indigofera turlari ko'k bo'yoqni o'z ichiga olgan indikan - (indikan glikozid) iborat bo'ladi. Bo'yoqlarni olish jihatidan eng qimmatlilari Indigofera tinctoria va Indigofera anil hisoblanadi. Bu o'simliklardan bo'yoqlar ishlab chiqarish qadim zamonlardan beri ma'lum. Ammo keyin bo'yoqlarni tayyorlash va ular bilan matolarni bo'yash retseptlari yo'qolgan. Ammo tiklangan, sinchkovlik bilan, asta-sekin, hozirgi vaqtda tabiiy materiallar bilan bo'yalgan matolar juda qimmatlidir, chunki bo'yash jarayoni juda ko'p mehnat va vaqt sarfini talab qiladi. Indigofera barglari katta qozonlarda namlanadi va bir necha kun davomida yaxshilab ivitiladi. Qalin ko'k suyuqlikning maksimal miqdori olinmaguncha ishlov beriladi. Suvi olinadi, sirdan yig'ilgan ko'k kichik qismlarda quritiladi. Bo'yash eritmasini o'zi tayyorlash uchun indigo kukuni maydalangan limon bilan aralastiriladi va fermentatsiya uchun

bu aralashmani bir hafta qo'yiladi. Bu bo'yoq o'zining haqiqiy qiymatini va intensivligini faqat ko'p yillik fermentatsiya davridan so'ng oladi, eng noyob bo'yoq olish uchun terakota idishlariga quyiladi va yerga ko'miladi. Bo'yoq tayyor bo'lgandan keyin matoga qo'llaniladi. Dastlab mato yashil rangga ega bo'ladi. Ammo keyin kislorod ta'sirida ko'k rangga ega bo'ladi. Ular odatda bir necha bosqichda bo'yalgan. Dizaynni olish uchun avval eritilgan mum yordamida matoga naqshlar qo'llaniladi va shundan keyingina u bo'yoq bilan qoplanadi. Tayyor matolar ochiq havoda, quyosh ostida quritiladi. Indigo o'simliklari juda qiziq, ular ikki jinsli gullari bo'lgan yarim bargli o'simliklardir, ko'pincha pushti yoki lavanta soyalarida. Barglari kichik, oval shaklga ega, yorug'sevar o'simlikdir. Gullari qizil va pushti rangli bo'lib, loviyasimon dukkakli meva xosil qiladi. Bitta dukkakda 2 tadan 4 gacha urug' bo'ladi. O'simlik tuproqni azot bilan boyitishi, yon bag'irlarni eroziyadan saqlash qobiliyati tufayli qishloq xo'jaligi ekinlari sifatida keng tarqalgan. Indigofera barglari kukuni to'qimachilik va go'zallik sanoatida qo'llaniladi. Qadimdan Tibet va Hind-Xitoy an'anaviy tibbiyotida ushbu o'simlikdan foydalanib kelingan. Shuningdek, Hind-Xitoy farmatsevtika sanoatida antibakterial va antifungal dori-darmonlar, it tishlashi va ilon chaqishiga qarshi dorilar, epilepsiya, jigar zaharliligini kamaytirish, teri va saraton kasalliklarining ayrim turlarini davolash, jinsiy a'zolar, buyrak, asab kasalliklarini hamda jiddiy yuqumli kasalliklarini davolashda va ildiz qaynatmasidan ich qotishi, shuningdek vaboni davolashda foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jong-Bokim, Spandena Rajendra Kopalli., Sushruta Koppula. *Tropical Journal of Pharmaceutica Research* **15**, (4) 773-779 (2016)
2. A. Ergashev, G.Yakubov el. at, *International Journal of Development Research*. **5**, 12 p. 6213-6218 (2015)
3. Jenny Balfour-Paul *Indigo Plants and Making of their Dye*, (Sublime indigo, 1987) 43
4. G. Yakubov Effect of stimulants to photosynthetic and symbiotic activity of indigofera tinctoria L. Plant. *E3S Web of Conferences* **486**, 01035 (2024)
5. S.M. Mambetullaeva et.al, *Web of scientist: International scientific research journal* **4**, (2) 847-851 (2023)